

## OILADA, OILA A'ZOLARI O'RTASIDAGI MUOMALA MADANIYATIGA DOIR LEKSIK BIRLIKLARNI O'QITISHNING PEDAGOGIK TAHLILI

Sindorov Rajapboy Ulugbek o'g'li

SamDChTI tayanch doktoranti

rajapboysindorov77@gmail.com

### Annotatsiya

Muomala madaniyati hamma tillar uchun umumiydir. Shuningdek, o'zbek va fransuz tillarida ham bu tushuncha bir xil ma'noni anglatadi. Lekin qo'llash jarayonlarida ma'lum darajada farqlanadi. Har ikkala millat vakillarida ham oila muqaddas tushuncha hisoblanadi.

Аннотация: Культура взаимодействия является общей для всех языков. Также это понятие имеет одинаковое значение в узбекском и французском языках. Но он отличается в определенной степени в процессе подачи заявки. Семья считается священным понятием у представителей обоих народов.

Abstract: The culture of interaction is common to all languages. Also, this concept has the same meaning in Uzbek and French. But it differs to a certain extent in the application process. The family is considered a sacred concept among representatives of both peoples.

**Kalit so'zlar:** Oila a'zolari o'rtasida turlicha munosabatlar, muloqot jarayonlari, xushmuomalalik va shirin so'zlik, murojaat qilish jarayonlari.

**Ключевые слова:** Различные отношения между членами семьи, процессы общения, вежливость и ласковые слова, процессы обращения.

**Key words:** Various relationships between family members, communication processes, politeness and affectionate words, conversion processes.

Oila a'zolari o'rtasida turlicha munosabatlar mavjud, misol qilib aytadigan bo'lsak, fransuzlarda ota va o'g'il, aka va uka opa va singillar orasida muloqot jarayonlari bizninkiga qaraganda anchgina farqlanadi. Shunisi e'tiborga molikki, ularda muloqot jarayonida yoshi va oiladagi o'rniga (katta-kichikligiga) qaramasdan "sen" lab murojaat qilishga odatlanishgan. Chunki ularda sensirash odatiy holga aylanib qolgan va ular o'rtasidagi yaqinlik munosabatni bildiradi.

Masalan:

Maman: mon petit, est-ce que tu est allé à l'école, aujourd'hui?

Garçon: oh, non maman, j'ai mal à la tête comme tu m'a grondé, hier!

Maman: oh la-la, il ne faut pas être mecontent, pour devenir un grand homme tu dois continuer tes études. Tu sais ça?

Garçon: d'accord, maman, j'irai à l'école si tu m'achètes un grand dedas.

Maman: je suis d'accord, mon petit!

Bu dialogda ko'rib turganingizdek farzandi o'z onasiga senlab murojaat etmoqda. Yana shuni aytib o'tish joizki, nafaqat ona va bola o'rtasida balki oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi muloqot ham shunday kechadi. Demak, qanday holatlarda ular "siz"lab murojaat qilishadi va kimlarga? Ko'cha-kuyda tanimagan-bilmagan kishiga, o'zidan yuqori mansabli kishiga hurmat yuzasidan va jamoat joylarida bu murojaatdan fodalanishadi. Endi esa keyingi holat (notanish kishi bilan talabning qisqa dialog) ni ko'rib chiqamiz. Bu quyidagicha tavsivlanadi.

Etudiant: excusez-moi, monsieur! pouvez-vous me dire, quelle heure est-il?

Passant: oui, bien sur il est 10h et demi. Où allez-vous? Je pense que vous êtes étudiant!

Etudiant: oui, vous avez raison, merci beaucoup, monsieur!

Passant: pas de quoi!

Bu dialogda ko'rib turganimizdek, talaba ham, yo'lovchi ham bir-biriga "siz"lab murojaat etishmoqda. Bundan xulosa chiqadiki, birinchi bor muloqat jarayonida har qanday shaxs bilan ham "siz" lab muloqatda bo'lish talab etiladi.

Azal-azaldan ma'lumki, o'zbek xalqi o'zining xushmuomalaligi va shirin so'zligi bilan ko'pgina xalqlarni o'ziga rom etib kelgan. Shuning bilan birga oila- da ham har bir oila a'zosining o'z o'rni va mavqeyi mavjuddir. Bizlarda fransuzlardan farqli o'laroq, "kattaga hurmatda, kichikka izzatda bol", degan naqlga ergashgan holda yoshi kattalarga nisbatan "siz" lab murojat etishadi. Fransuz muomala muomala madaniyatida "sensirash" yaqinlik ma'nosini anglatsa, bizlarda aksini ko'rsatadi. Hattoki, ba'zi paytlarda o'zidan kichiklarga ham hurmat yuzasidan "siz"lab muloqatga kirishadi. O'zbek oilasida ota va onaning qadri va hurmati hardoin cheksiz bo'lib kelgan, buni "otang o'tirgan uyning tomiga ham chiqma" yoki bo'lmasa, "onang do'st, tanang do'st" kabi xalq aforizmlari orqali ham bilishimiz mushkul emas. Shunday ekan, hech bir farzand yo'qki, ota-onasiga "sen" lab murojaat etsa. Bu jarayonni quyidagi dialog orqali ham ko'rishingiz mumkin bo'ladi.

Og'il: Assalomu –alaykum, dada, hayrli tong yaxshi dam oldingizmi?

Ota: Va allaykum- assalom, o'g'lim, yaxshi rahmat, kel o'tirchi?!

Og'il: Dada, bugun maktabimizda ota-onalar majlisi bo'lyapti, bizning oilamizdan ham kimdir qatnashishi kerak ekan. Yoki siz yoki,oyim.

Ota: Albatta, o'g'lim, ishimdan javob olib, boraman hotirjam bo'l, xo'pmi toychog'im?

O'g'il: Raxmat, dada, sizni yaxshi ko'raman...!



Mana shu qisqagina ota va o'gil o'rtasidagi muloqat orqali butun bir oiladagi muhitni bilib olsak bo'ladi. Bundan tashqari siz oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi ya'ni aka va uka o'rtasidagi muloqatni ham kuzatishingiz mumkin. Bu jarayon quyidagicha.

Aka: Nortoy, uka, bu yoqqa kel!

Uka: labbay, aka, nima xizmat menga!

Aka: qara, bu bobomdan qolgan do'ppi, u haqiqiy charmdan ekan, dadam aytdi, yozda salqin, qishda issiq tutarkan. Uni senga sovg'a qilaman boshingdan yechma!

Uka: rahmat, akajon! Bu yaxshiligingizni xech qachon unutmayman!

Endi esa fikrimizning dalili sifatida har ikkala tildagi, oila muloqoti jarayoniga tegishli bo'lgan leksik birliklarni va ularning qo'llanish holatlarini e'tiboringizga havola etamiz. Har bir narsa "salom"dan boshlanadi deganlaridek, biz ham, hozirgi kunda baynalminal so'zga aylanib ulgirgan "bonjour" leksemasidan boshlaymmiz. Bu so'zsiz dunyoning eng chiroyli shuning bilan eng qiyin tillaridan biri bo'lgan fransuz tilini tasavvur etib bo'lmaydi. Demak bu so'z oilada qanday holatlarda ishlatiladi? "Bonjour" leksemasi o'zbek tilida "xayrli tong" ma'nosini anglatadi. Lekin asosan o'zbek tilidagi "Assalomu alaykum" (arabcha so'z bo'lib, sizga tinchlik, salomatlik tilayman, degan ma'noni anglatadi). leksik birligiga qisman mos keladi. Fransuzlar "Bonjour" leksik birlikni rasmiy va norasmiy uchrashuvlarda, do'stlar va oila davrasida kattalarga nisbatan ishlatishadi.

Masalan:

Nicolas: bonjour, papa, je suis revenu de l'école où est maman?

Papa: ta maman...?

Nicolas: oui, ma maman!

Papa: elle est à la cuisine, elle s'occupe de preparer le rôti!

Nicolas: ah! quelle chance! J'aime le rôti, maintenant je vais aller à la cuisine...!

Nicolas: bonjour, maman, qu'est ce que tu fais ici? je me sens l'hodeure d'un bon plat!

Maman: ah, la la! tu m'a peur, ma pouce! J'en ai marre de ton caractere!

Nicolcas: excuse-moi, maman! Je ne repete pas encore!

Maman: d'accord, mets à la table! Je vais te donner la nourriture!

Nicolas: ok! Maman, je t'adore beacoup...! (P N 21p )

O'zbeklar orasida «Assalomu alaykum», asosan yoshlar tomonidan yoshi kattalarga, xodim tomonidan rahbariga, farzand tomonidan ota-onasiga; tongda, tunda ishlatishadi. Ya'ni leksik birlik o'zbek tilida rasmiy va norasmiy uchrashuvlarda, kunning qaysi vaqtidan, kishilar yoshidan qat'iy nazar har qanday hollarda qo'llaniladi. Demak, «Assalomu alaykum» leksik birlik salomlashishning dominant birligidir. Fransuz tilida bu birlikning aynan muqobil varianti yo'q, biroq fransuz tilidagi "Bonjour" leksik birligi qisman «Assalomu alaykum»ga mos keladi. Fransuzlar "Bonjour" leksik birlikni rasmiy va norasmiy uchrashuvlarda, do'stlar, oila davrasi, hamkasblar orasida qo'llashadi, biroq uni faqat soat 18:00 gacha qo'llash

mumkin. Bundan ko`rininib turibdiki, fransuz tilidagi "Bonjour" o`zbek tildagi «Assalomu alaykum» leksik birlikka nisbatan qo`llanish doirasi cheklangan. Bundan tashqari siz yana bir qancha fransuz va o`zbek oilalarida qo`llanuvchi leksik birliklar ro`yxatini ko`rishingiz mumkin.

Bonjour- assalomu-alaykum!

Bon matin-xayrli tong!

Bonne journèe-xayrli kun!

Bonsoir-xayrli kech!

Bonne nuit-xayrli tun!

Bon appétit-yoqimli ishtaha!

Bonne anniversaire-tug`ilgan kuningiz bilan!

Bonne fête-bayramingiz bilan!

Xulosa qilib shuni aytamanki, fransuz va o`zbek xalqi mutlaqo boshqa-boshqa millat vakillari bo`lishsada, muomala madaniyati tufayli ular bir-birlariga qardosh xalqlardek go`yo, o`zbek xalqi o`zining shirinsuxanligi bilan ajralib tursa, fransuzlar xushmuomalalikning cho`qqisiga chiqishgan desak mubolag`a bo`lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Armand Colin. Paris, 2006, 418 p
2. Bally. C, A. Sècheyay , Ferdinand de Saussure. Cours de linguistique générale, Payothèque. Paris, 1975, 214 p.
3. Bénac.H, B. Réauté , Nouveau vocabulaire de la dissertation et des études littéraires, Hachette. Paris, 1986 , 248 p.
4. Galichet G. Grammaire structurale du français moderne. P., 1970, 411 p
5. Garnier.y, M. Vinciguerra , Le Petit Larousse illustré. Paris, 2006, 615 p.
6. Mo`minov S. O`zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt.diss. Toshkent.- 2000, 56-b.
7. Reboul.A, Moeschler.J La pragmatique aujourd'hui. Une nouvelle science de la communication, Le Seuil. Paris,1998, 254 p.